

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



УО'К: 378:37.02:37.013.78:37.018.43:004

**MEDIATA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING
INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
AHAMIYATI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-
АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ
ДИСЦИПЛИН В СРЕДСТВАХ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ**

**PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL-
ANALYTICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY IN THE MEDIUM
OF MEDIA EDUCATION**

Aldasheva Sayyoraxon To'lqinovna 

Andijon davlat unoversiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada multimedia vositalarida dars o'tishning samarasi, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish darslarda faolligiga ijobji ta'sir ko'rsatish omillari o'rganilgan. Maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatlaridan kelib chiqib, xulosa qismida taklif va tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В статье исследуются факторы, влияющие на эффективность проведения уроков на мультимедийных носителях, положительное влияние на активность на уроках развития информационно-аналитической компетентности будущих учителей технологических дисциплин. Исходя из научной и практической значимости статьи, в сводной части приводятся предложения и рекомендации.

Abstract

The article examines the factors influencing the effectiveness of lessons on multimedia media, the positive impact on the activity in the lessons of the development of information and analytical competence of future teachers of technological disciplines. Based on the scientific and practical significance of the article, the summary section contains suggestions and recommendations.

Kalit so'zlar: mediata'lim, media vosita, multimedia, texnologiya, analitik tafakkur, mediasavodxonlik.

Ключевые слова: медиообразование, медиаинструмент, мультимедиа, технологии, аналитическое мышление, медиаграмотность.

Key words: media education, media tool, multimedia, technology, analytical thinking, media literacy.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, ta'lif tizimida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini media-ta'lif masalalariga e'tiborini kuchaytirishning asosiy sabablari va dolzarbligi hisoblanadi.

Mediata'larning ahamiyati va uni qo'llab-quvvatlash YUNESKO qaror va tavsiyalarida bir necha bor qayd etilgan. YUNESKOning 2002-yilgi tavsiyalarida ta'kidlanishicha, "mediata'limi har bir mamlakat fuqarosining so'z va axborot erkinligiga bo'lgan asosiy huquqining bir qismi bo'lib, demokratiyanı qo'llab- quvvatlashga hissa qo'shadi. Turli mamlakatlarda media-ta'larning yondashuvlari va rivojlanishidagi farqlarni e'tirof etgan holda, uni imkon qadar milliy o'quv dasturlari doirasida, shuningdek, insonning butun hayoti davomida qo'shimcha, norasmiy ta'lif va o'z-o'zini tarbiyalash doirasida joriy etish tavsiya etiladi".[1]

MATERIALLAR VA METODLAR

Jahonda mediata'lim kundan kunga yangilanib, takomillashib bormoqda. Bu shubhasiz, texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, insonlar ayniqsa, yoshlar yurish-turishini, hayotini media(internet)siz tasavvur qilolmaydi. Darslarda talabalarning faol

bo'lishi va fanlarga qiziqishi va mavzularni o'zlashtirishi ko'p jihatdan o'qituvchi-pedagoglarning multimediatidan keng foydalanishiga bog'liq bo'lmoqda. Multimedia loyihibaridan foydalanish nafaqat darsni ko'rgazmali va qiziqarli qiladi, balki insonning shaxsiy yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ta'lism sohasida keng miqiyosli islohotlar olib borilmoqda. Davlatimizning ta'lism sohasiga e'tibori yuksak bo'lib, ayniqsa, oxirgi yillarda jadal ta'lism siyosati va islohotlari olib borilayotganligiga har kuni guvoh bo'lmoqdamiz. Islohotlar zaminida inson manfaatlari, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajak avlodlarni munosib kasb egalari bo'lib yetishlari ko'zda tutilgan bo'lib, olib borilayotgan ishlar o'z natijalarini ko'rsata boshlaganini ta'kidlash o'rindirid.

Ta'lism islohotlarda oliy ta'lism muassasalarida media vositalaridan hususan multimedia va boshqa turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bag'ishlangan keng qo'lamlili ishlar haqida maqsad-vazifalar qo'yilayotganini ko'rishimiz mumkin. Hususan, davlat siyosatining muhim poydevori bo'lgan "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da qo'yilgan 100 maqsaddan 10 ga yaqinida (41, 50, 70, 71, 72, 76, 78, 82, 89 va boshqa maqsadlarda) yoshlarning media bilan munosabatlarini ko'zda tutuvchi muhim ishlar belgilangan.[2]

Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 - yildagi PF-5847-** sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risidagi farmoni",da Oliy ta'lism muassasalarini zamonaviy AKT vositalari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlash, jumladan kompyuterlar, serverlar, simsiz tarmoq uskunalarini, proyektorlar va multimedia uskunalarini bosqichma-bosqich sotib olish, shuningdek, yagona talablar asosida oliy ta'lism muassasalarida ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklangan edi. [3] Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lism uchun multimediatidan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm va so'zlarni birlashtirgan talabalarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantrishda faqat so'zlardan foydalananiganlarga qaraganda ko'proq ijobjiy natijalar kuzatilgan. Jumladan, multimedia vositalari asosida texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantrish samarasi an'anaviy usulga qaraganda 2 barobar unumli va vaqtadan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtini tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash va informatsion-analitik kompetentligini rivojlantrish 25-30% gacha oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, vedyo va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxassislar fikricha, mediata'lism talabalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yana-da rivojlantrishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lism jarayonida mediata'lism qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun mediata'lism sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lism jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita mediata'lism bilan chambarchas bog'liqidir.

Mediata'lism barcha ta'lism sohasini sifat jihatdan yana-da yuqoriroq pag'ona ko'tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga o'quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi. Ular dars jarayonida o'sha mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Manbalarda qayd etilishicha, YUNESKO qoshidagi kino va televide niya bo'yicha xalqaro kengash tomonidan 1973 yili birinchi martda video ta'limga shunday ta'rif berilgan edi: "Mediata'lism deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaraliyotgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini egallash uchun nazariy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni tushunish lozim". [4]

Ta'lism sohasida mediata'lismni joriy qilish borasida yetarlicha huquqiy asoslar va davlat dastrulari qabul qilingan hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarda uning foydasi va samarali jihatlari yuqoriligi asoslangan bo'lsa-da, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantrish omillarini o'rganish va o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib

PEDAGOGIKA

borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarining asl mohiyatini aniqlash dolzARB ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dunyoda va mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lif siyosati va amaliyotlari, media savodxonligi har kuni o'zini yangilab borayotgan aloqa texnologiyalarining aql bovar qilmaydigan tezligi bilan kundan-kunga ahamiyatini oshirmoqda. Yangi aloqa texnologiyalari tezligiga moslashishda qoidalar va siyosatlardan tezroq bo'lgan oxirgi foydalanuvchi xabarni qabul qilish, ishlab chiqarish, ko'paytirish, baholash va tarqatish jarayonlarida doimiy ravishda yangilanadigan xatti-harakatlar modellari va usullarini namoyish etmoqda. Bu tez o'zgaruvchanlik va moslashuvchanlik, ayniqsa boshqaruv va tartibga soluvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi.

O'zbekistonda media savodxonligi ta'limga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2000- yillarning boshidan buyon bu masala davlat siyosati va tadqiqot sohasi sifatida qabul qilinganini, shuningdek, 2017-yildan e'tibor yanada oshganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ushbu mavzu bo'yicha nazariy ishlarni va xalqaro platformalardan olingen bilimlarni boshqarish, tartibga solish va amaliyotga kiritishda ba'zi muammolar mavjud. Bu kamchiliklar o'tkazilgan seminar va yig'ilishlarda ham, joylardagi o'r ganishlar natijalarida ham o'z ifodasini topmoqda. Mediata'lif bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining o'zgaruvchan davriga qarab ishlab chiqarish mexanizmlariga qarab kontekstda tez yangilanishi kerak bo'lgan va eng muhimi turli darslarga qo'llash uchun integratsiya qilinishi va turli darslarda foydalanish kerak bo'lgan ta'lif to'plamidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. The Seville Recommendation. In: Youth Media Education. Paris: UNESCO, 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 - yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risidagi farmoni"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. UNESCO. The Seville Recommendation. In: Youth Media Education. Paris: UNESCO, 2002.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
6. Amonova A.S., Qobulova N.B., Boshlang'ich ta'lif samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal, December 2021 / Volume 2, Issue 12, 528-b.
7. Духтаева А., Мультимедийные проекты как способ повышения медиаграмотности учеников средней общеобразовательной школы. Под ред. В. В. Тулупова. – Воронеж: Квarta, 2016. – С. 28.